



MAISHIY XIZMATLARDA KLASTERLASH VA RESURS SAMARADORLIGNI OSHIRISH AHAMIYATI

Normurodova Zebo Eshmaxmatovna

Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi

E-mail: normurodovazebo1@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda maishiy xizmatlar sohasida klasterlash jarayonlarining iqtisodiy ahamiyati hamda resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashdagi roli yoritilgan. Tadqiqotda klaster yondashuvi orqali xizmat ko'rsatish subyektlari o'rtasida kooperatsiya va integratsiyani kuchaytirish, ishlab chiqarish va xizmat jarayonlarida moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, klasterlashning raqobatbardoshlikni oshirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va xizmatlar sifati hamda hajmini yaxshilashdagi ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari maishiy xizmatlar sohasini barqaror rivojlantirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqishda muhim ilmiy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Maishiy xizmatlar, klasterlash, resurs samaradorligi, xizmatlar sohasi, kooperatsiya, raqobatbardoshlik, innovatsiyalar, iqtisodiy samaradorlik.

Kirish. Maishiy xizmatlar sohasida kichik biznes subyektlarining faol rivojlanishi, bir tomondan, aholining ushbu xizmatlarga bo'lgan ehtiyojining ortib borishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, mazkur sohaning bozor iqtisodiyoti sharoitlariga tez va moslashuvchan tarzda moslasha olish xususiyati bilan izohlanadi. Bunda klasterlashuv orqali korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalarini mustahkamlash, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish resurslaridan birgalikda foydalanish resurs samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Hozirgi bosqichda maishiy xizmatlarning miqdori va sifatiga qo'yilayotgan talablarning ortib borishi aholining moddiy farovonligi oshishi bilan bevosita bog'liqdir. Natijada, iste'molchilarning individual ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan, yuqori sifatli va assortiment jihatdan rang-barang maishiy xizmatlarga talab kuchaymoqda. Bu esa maishiy xizmatlar sohasida innovatsion klasterlarni shakllantirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini chuqur o'rganish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Shu boisdan, maishiy xizmatlarda klasterlash va resurs samaradorligini oshirishga qaratilgan nazariy yondashuvlar mazkur sohani barqaror rivojlantirish, xizmatlar sifati va iqtisodiy samaradorligini ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Turli xildagi sartaroshxona hamda go'zalik salonlari uskuna va texnikalarini xarid qiladi, bu ham o'z o'rnida sartaroshxona hamda go'zalik



salonlari xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarni kamaytiradi. Bir qator buyumlarini narxi pastligi sababli aholi ularni ta'mirlashdan ko'ra yangisini xarid qiladi, bu esa bir qator faoliyatlarni ishini susaytiradi. Umuman olganda aholi daromadlaridagi ijobiy o'zgarishlar bir tomondan maishiy texnikalarni xarididagi o'zgarishlarga olib kelsa, ikkinchi tomondan ayrim maishiy xizmat turlariga bo'lgan ehtiylarni oshirib boradi. Jumladan; Kompyuter texnikalaridan keng miqiyosda foydalanish kompyuter usukunalarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni ko'payishiga olib keladi. Telefonlardan keng ko'lamda foydalanish aloqa telefon usukunalarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar ko'payishiga olib keladi. Video elektronika priborlaridan ommaviy foydalanish ularni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni rivojlanishiga olib keladi. Maishiy xizmat ko'rsatish sohasining xarakterli xususiyati ularning harakatchanligi, ya'ni vositachilarsiz o'zlarining mijozlari va buyurtmachilari bilan bevosita munosabatga kirishishlari hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, hududiy maishiy xizmat ko'rsatish sohasida konseptual jihatdan dolzarb bo'lgan nazariy va amaliy vazifalar quyidagilardan iborat:


- ❖ maishiy xizmat ko'rsatish sohasida bandlikni rivojlantirish to'g'risida hududiy chora tadbirlar rejasini ishlab chiqish;
- ❖ innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davriga mos maishiy xizmatlar tasniflagichini qayta ko'rib chiqish;
- ❖ "Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish to'g'risida" (hududiy darajada) yangi taxrirdagi Nizom ishlab chiqish va joriy etish;
- ❖ maishiy xizmat ko'rsatish sohasi uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash konsepsiyasini ishlab chiqish;
- ❖ aholiga maishiy xizmat ko'rsatish subyektlarini har bir faoliyat negizida tashkil etish;
- ❖ maishiy xizmat ko'rsatish sohasini litsenziyalash, sertifikatlash;
- ❖ innovatsion maishiy xizmatlar obyektlarining investitsion loyihalarini ishlab chiqish;
- ❖ sohada axborot-ta'minoti tizimini takomillashtirish;
- ❖ ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga xizmat ko'rsatish uchun alohida maishiy xizmatlar turlari bo'yicha kichik maishiy xizmat korxonalarining ixtisoslashgan tarmog'ini yaratish;

Yuqorida keltirilgan nazariy va amaliy vazifalarni hal etish iqtisodiyotni tubdan isloh qilish sharoitida maishiy xizmat ko'rsatish sohalari faoliyatlarining ish maxsuldorligini oshirishda muhim vosita va shart-sharoitlar bo'lib hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish sohasini samaradorlik klasterlarini besh xil asosiy xususiyatga egaligini hisobga olib va ularning asosi klasterlarni shakllantirish omili bolib hisoblanadi. Uning maqsadida konsalting, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va boshqa xizmatlarni uyg'unlashtirish innovatsion ishlab



chiqarishni tashkil etish asosida raqobatbardosh tovarlar yaratishga yo'naltirishdan iborat. Buni aholini ish bilan ta'minlashni o'zini namoyon etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, klasteri shakllantirish orqali uning afzalliklari ham ko'payib boradi. Klaster ishtirokchilari o'zlarining mustaqilligini yo'qotmasdan aniq birlashish va hamkorlik qilish natijasida ko'plab afzalliklarga ega bo'ladilar. Klaster iqtisodiy rivojlanishni ta'minlab, klaster modelining yo'nalishlari shaklida namoyon bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda maishiy xizmat kategoriyasi mohiyatini quyidagicha talqin etamiz: "Maishiy xizmat kishilarning barcha turdagi ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, bevosita iste'molchilarning ishtiroki bilan xarakterlanadigan, iqtisodiy muhitning o'zgarishiga tez moslashadigan hamda rivojlanish darajasi aholi turmush darajasi va moddiy farovonligi bilan shartlanadigan ko'p qirrali ijtimoiy- iqtisodiy hamda funksional faoliyatdir". Iqtisodiyotning innovatsion va investitsion rivojlantirish sharoitida maishiy xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish natijasida aholi bandligini ta'minlash va ularning o'sib borayotgan maishiy xizmat ko'rsatish sohasidagi ehtiyojlarini qondirishga qo'lay shart-sharoit yaratish ishning ilmiy ahamiyatini ochib beradi. Bu soha aholini turli xil maishiy xizmat ko'rsatish sohasidagi ehtiyojlarini qondirishda uy xo'jaligida mehnat sarfini qisqartirish va fuqarolarning bo'sh vaqtlarini ko'paytirish imkonini yaratadi. 1-rasm



**1-rasm.Mamlakatimizda maishiy xizmatlarni guruhlarga ajratish**

Xulosa. Maishiy xizmat ko'rsatish faoliyati murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, iqtisodiy rivojlanishlar natijasida yangilanib o'zgarib boradi. Jumladan:avto-transport sohasidagi xizmatlarning rivojlanishi, maishiy xizmat ko'rsatish sohasi tarkibidagi avtomobilarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash turini maishiy xizmatlar tarkibidan chiqarilishiga sabab bo'ldi, yoki qurilish sohasidagi xizmatlarni rivojlanishi maishiy xizmat ko'rsatish sohasi tarkibidagi bino va inshootlarni ta'mirlash va pardoqlash xizmatlarini maishiy xizmatlar tarkibidan chiqarildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ketels, C. (2013). Recent Research on Competitiveness and Clusters: What Are the Implications for Regional Policy? Cambridge Journal of Regions, Economy and Society, 6(2), 269–284.
2. OECD. (2016). Enhancing the Contributions of SMEs in a Global and Digitalised Economy. OECD Publishing.
3. Schmitz, H. (1995). Collective Efficiency: Growth Path for Small-Scale Industry. Journal of Development Studies, 31(4), 529–566.
4. Enright, M. J. (2003). Regional Clusters: What We Know and What We Should Know. In J. Bröcker et al. (Eds.), Innovation Clusters and Interregional Competition. Springer.
5. Maskell, P., & Malmberg, A. (1999). Localised Learning and Industrial Competitiveness. Cambridge Journal of Economics, 23(2), 167–185.
6. World Bank. (2020). Clusters and Competitiveness: Policy Implications for Developing Economies. World Bank Publications.
7. European Commission. (2019). Cluster Programmes in Europe and Beyond. Brussels.